

O'QITUVCHILAR NUTQI MADANIYATI

Xongeldiyeva Sevara Shuxrat Qizi

O'zbek filologiyasi fakulteti

Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili ta'limi yo'nalishi

2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Umurqulov Bekpo'lat

Annotatsiya: Bu maqolada sohalarda nutq madaniyatining muhimligi, o'qituvchining o'ziga xos nutqi, dunyodagi har bir kasbni egallashda nutqning muhim vosita ekanligi borasidagi fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik madaniyat, sohalarda nutq madaniyati, o'qituvchilar nutqi, fonatsiya jarayoni, ta'lim-tarbiya, ma'naviyat-ma'rifat, estetik ta'sir.

Insoning ma'naviy kamolotga erishuvida, jamiyatning madaniy-ma'rifiy rivojida ona tilining o'rni favqulotda muhimdir. Til milliy ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatning eng xolis va xira tortmas ko'zgusidir. Hadisi shariflarda "Kishining zeb-u ziynati go'zalligi uning tilidadir" deydilar. Shoh va shoir bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur nutqining soda, ravon va aniq bo'lishiga nutqiy madaniyatning yuqori bo'lishiga alohida e'tibor bergen.

Nutq madaniyati jamiyat madaniy-ma'rifiy taraqqiyotining millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir. Haqiqiy ma'nodagi madaniy nutq shaxs umummadaniy saviyasini favqulodda muhim unsurlaridan biridir. Shuning uchun ham mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb, e'tirof etilgan. Bugungi kunda nutq madaniyati masalalari o'qituvchining nutqiy madaniyat mahorati farzandlarimizning madaniy nutq ko'nikmalari va malakalarini oshirish, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida madaniy nutq muammolarini yetarli darajada nazarda tutish har qachongidan dolzarbdir[1,61]. Shuningdek, dunyoda turlituman kasblar, bir-biridan turfa hunarlar bor. Ularning har birida o'ziga xos ish qurollaridan foydalaniladi. Masalan, dehqonlarning asosiy ish quroli ketmon. Duradgorlarniki –tesha, arra,(arra,randa), jarrohniki – tig', tikuvchiniki – igna. O'qituvchi va pedagoglarning asosiy ish qurollaridan biri bu uning nutqidir. Avvalo har bir inson kim bo'lishi va qaysi sohaning egasi ekanligidan qat'iy nazar chiroyli va ma'noli so'zlash qobiliyatiga ega bo'lishi lozim[3,2].

Ma'lumki, o'qituvchilik o'ta mas'uliyatlari va sharaflari kasb hisoblanadi. Ta'lim muassasalarida o'qituvchining samaradorligi avvalo uning bilimdonligi, tayyorgarligi, o'z faniga qiziqishi, izlanuvchanligi, yuksak pedagogik mahorati va albatta nutqiy qobiliyatiga bog'liqdir. Barkamol hamda har taraflama yetuk insonni tarbiya qilish uchun o'qituvchi nafaqat puxta bilimli balki o'z fikrini chiroyli, ravon, nutq madaniyati

qonuniyatlarini chuqur egallagan holda ifoda qila olishi zarur. Nutq madaniyati barcha fan o'qituvchilari uchun birdek ahamiyatlidir. O'qituvchining nutqiy madaniyati darslarni tashkil etish, yangi mavzuni tushuntirish va mustahkamlsh, so'rash va javob berish, mavzu bo'yicha muammoli vaziyatlarniyaratish va munozaralar yordamida hal etsih kabi ta'lim jarayonining barcha jabhalarida namoyon bo'ladi. O'qituvchi bevosita nutqi yordamida muayyan mavzun tushuntiradi, fikrini mantiqiy izchillik asosida bayon etadi, ya'ni dalillarni asoslaydi, taqqoslaydi, ular o'rtasidagi aloqani ma'lum qiladi, umumlashtiradi va xulosalaydi. Shuning uchun o'qituvchi nutqiy jihatdan quyidagi talablarni o'z oldiga qo'yishi maqsadga muvofiqdir:

- o'quvchilar diqqatini to'play olish;
- nutqning ta'sirchan va ifodaliliga ahamiyat qaratish;
- fikrni ixcham, sodda, ta'sirli qilib ifodalash;
- mavzuga mos dalil va isbotlarni aniq, lo'nda qilib keltirish;
- aytilgan fikrni o'rinsiz takrorlamaslik;
- fikrni bayon etish jarayonida hayajonlanmaslik, o'zini og'ir tutish;
- o'quvchilar nutqini shakllantiish;

O'qituvchilar faoliyatida nutq juda muhim vazifalarni bajaradi. O'qituvchilarning so'zları ta'sirida bolalarda muayyan ruhiy jarayon va holatlar vujudga keladi, insoniy xislatlar shakllanadi. Albatta, o'qituvchi nutq madaniyati haqida gap yuritilganda muallimning faqatgina gapirishi emas, shuningdek, yozma fikr bayon qilishi, tinglab tushunishi va o'qishi ham e'tiborga olinadi. O'qituvchining nafaqat dars jarayonida, balki darslardan tashqari o'tkaziladigan tarbiyaviy mashg'ulotlarda, tadbirlarda, ota-onalar yig'ilishlarida, aholi va mehnat jamoalari huzurida nutqning go'zalligi bilan ajralib turishi kerak. Chunki o'qituvchining nutqi, o'quvchilar uchun namuna vazifasini o'tyadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

O'qituvchi nutqida kuzatiladigan kamchiliklardan biri fonatsiya jarayonida, ya'ni nutq hosil bo'lish paytida nafas olishdagi tartibsizliklar bilan bog'liq. Fonatsiya jarayonida nafas olish va nafas chiqarish fazalari shunday yo'lga qo'yilishi kerakki, nafas olish zo'riqishsiz, bir qadar jadalroq, nafas chiqarish esa tekis, bir me'yorda va davomliroq kechishi lozim. Nafas chiqarish qanchalik davomli, uzun bo'lsa, shunchalik yaxshi. Zoatn, tovush, nutq ayni shu nafas chiqarish jarayonida hosil bo'ladi.

Fonatsiyada nafas olish va nafas chiqarish fazalarining ketma-ketligi, almashinish tartibini to'g'ri tasavur etmoq kerak. Bu fazalar bilan nutqning hajmi va, albatta, mazmuniy estetik qurulishi o'rtasidagi mutanosiblikni to'g'ri belgilamaslik oqibatida nafasning yetmay qolishi, shunga ko'ra bir nafas bilan yaxlit aytilishi lozim bo'lgan nutq parchasining bo'linib ketishi, mantiqiy mazmunni buzadigan noo'rin

pauzaning paydo bo'lishi kabi nuqsonlar o'rta ga chiqadi[2,46]. Nutq texnikasini egallashda umumiy tarzda bo'lsa-da, fonetik bilimlardan boxabarlik zarur. Ayrim o'qituvchilar ko'pincha dars jarayonida boshqa joylardagiga qaraganda anchayin baland ovozda gapiradilar. Bu yo'l bilan go'yoki sinfdagi shovqinni "bosib" qo'yganday bo'ladilar. Ammo bu usulning ta'siri baribir u qadar katta bo'lmaydi, faqat o'qituvchining ovoz apparati keraksiz zo'riqadi, o'zi tez charchaydi. Yana ba'zi o'qituvchilar borki, ular darsda deyarli past ovozda so'zlaydilar. Bunda ham o'qituvchining o'zi qiynaladi, ammo sezilarli samaraga erishmaydi, faqat bunday ovoz bo'g'iq, tussiz eshitiladi va o'quvchining diqqatini ushlab turmaydi. Tajribali o'qituvchi faqat baland yoki faqat past ovozda dars o'tmaydi.

Umuman, o'qituvchi o'zining nutq texnikasini takomillashtirish borasida doimiy qayg'urishi, fonetika, fonologiyaga oid bilimlaridan umumiy tarzda

bo'lsa-da, xabardor bo'lishi, kerak bo'lganda, o'z nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga yordam beradigan mashqlardan mutassil foydalanib borishi maqsadga muvofiq. Chunki tugal nutq texnikasisiz o'qituvchining, har bir nutq tuzuvchining og'zaki nutqi madaniyatini also raso deb bo'lmaydi.

Foydalaniłgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azimova Madina.O'qituvchi nutqi madaniyati. Maqola; Central asian Research Journal For Interdisciplinary Studies, 2022.
2. Hamidov Abdumalik. O'qituvchi nutqi madaniyati. Termiz, 2013.
3. Dilfuza Paraxadova.O'qituvchi nutqi mahoarti.Maqola.